

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSs.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**XOMIDOV QAXXORALI QURBONALI O‘G‘LI**

**HUDUDLARDA TURISTIK MAJMUALAR FAOLIYATINING  
TASHKILY-IQTISODIY VA BOSHQARUV MEXANIZMLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati  
08.00.13 – Menejment**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии(PhD) по  
экономическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in  
Economic Sciences**

**Xomidov Qaxxorali Qurbonali o'g'li**

Hududlarda turistik majmualar faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish..... 3

**Хомидов Каххорали Курбонали угли**

Совершенствование организационно-экономических и управленческих механизмов функционирования туристских комплексов в регионах..... 28

**Homidov Kakhkhorali Kurbonali ugli**

Improvement of organizational-economic and management mechanisms of the activities of tourist complexes in the regions..... 54

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 61

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSs.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**

**XOMIDOV QAXXORALI QURBONALI O‘G‘LI**

**HUDUDLARDA TURISTIK MAJMUALAR FAOLIYATINING  
TASHKILY-IQTISODIY VA BOSHQARUV MEXANIZMLARINI  
TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati  
08.00.13 – Menejment**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Iqt3389 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiyasi Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasida ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) va "Ziyonet" axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Mirzayev Abdullajon Topilovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:** **Aliyeva Mahbuba Toychiyevna**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Raximova Dilfuza Nigmatovna**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** **Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli Ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengashning 2024-yil "5" 03 kuni soat 14<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-01-49; faks: (99871) 239-41-23; e-mail: [tdu@tsue.uz](mailto:tdu@tsue.uz)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1405 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-75; faks: (99871) 239-28-75; e-mail: [tdu@tsue.uz](mailto:tdu@tsue.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "20" 02 kuni tarqatildi.  
(2024-yil "20" 02 dagi 13 - raqamli reyestr bayonnomasi).



**M.P. Eshov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

**U.V. G'afurov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash koo'bi, i.f.d., professor

**A.A. Eshtayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash huzuridagi bir martalik ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda turizm sanoati barcha mamlakatlarda xizmatlar sohasi rivojlanishida asosiy omil bo'lib, hududlar turizm-iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanishda turistik majmualar faoliyatini rivojlantirish turizm sanoati taraqqiyotini ta'minlashning muhim masalalaridan biri sifatida belgilanmoqda. Jahonning rivojlangan mamlakatlari iqtisodiyotida turizm sohasi alohida o'rin kasb etadi. Jahon sayohat va turizm kengashi ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda sayohat va turizm sohasining jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 7,6 %ni tashkil etgan. 2021-yilga nisbatan 22 %ga o'sish va 2019-yilga nisbatan 23 % pasayish kuzatilgan. Shu bilan birga, 2022-yilda mahalliy sayyohlar va turistlar tomonidan amalga oshirilgan xarajatlar 20,4 %ga oshib, 2019-yilga nisbatan 14,1 %ga pasaygan hamda xorijiy sayyohlar va turistlarning xarajatlari 81,9 %ga oshganiga qaramay, 2019-yildagi ko'rsatkichlardan 40,4 %ga past bo'lgan<sup>1</sup>. Turizm sohasini rivojlantirishda mavjud va istiqboldagi imkoniyatlardan samarali foydalanish hamda turistik majmualar faoliyatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy hamda boshqaruv mexanizmini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Jahonda turizm sohasini rivojlantirishda turistik majmualarning iqtisodiy salohiyatini hisobga olgan holda turizm industriyasi va infratuzilmasini rivojlantirish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar ustuvor darajada amalga oshirilmoqda. Bu borada hududlarda turistik majmualar faoliyatini shakillantirishga ilmiy yondashuvlarni tadqiq qilish va uning tamoyillarini ishlab chiqish, turistik majmualarda iqtisodiy salohiyatni baholash mezon va ko'rsatkichlarini aniqlash, turistik majmualarni rivojlantirish omillarini alohida yo'nalishlar bo'yicha guruhlash, turizm sanoatida turistik majmualar salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish, turistik majmualar salohiyatidan foydalanishning sinergetik ta'sirini baholashni takomillashtirish mavzulariga bag'ishlangan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekistonni barpo etish sharoitida hududlar turizm salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish, hududlarda turistik majmualar faoliyatini shakillantirish orqali kiruvchi turistlar sonini oshirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Turizm korxonalarini raqobatbardoshligini ta'minlash, ichki va tashqi turizmning sifat-miqdor jihatdan jadal rivojlantirish yo'nalishlarida keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. "Umuman, bu yil 7 million xorijiy va 15 million ichki sayyohlarni jalb etish, soha eksportini 2,5 milliard dollarga yetkazish imkoniyati bor"<sup>2</sup>. Bu vazifalarni amalga oshirishda hududlarda turistik majmualar faoliyatini rivojlantirishning qo'shimcha imkoniyatlarini asoslash, turizm salohiyati va resurslar taqsimotini hududga oid xususiyatlarni hisobga olgan holda takomillashtirish, turistik majmualarni rivojlantirishda mavsumiy va hududiy omillar

---

<sup>1</sup> <https://wttc.org/research/economic-impact> - Travel & Tourism Economic Impact | World Travel & Tourism Council (WTTC).

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2023 yil 29 mart kuni mamlakatimizning turizm salohiyatini oshirish masalalari muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishi yuzasidan ma'ruzasi <https://president.uz/uz/lists/view/6095>

ta'sirini baholashning o'ziga xos yondashuvlarini taklif etish yo'nalishlarida ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrdagi PF-4861-son "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 3-fevraldagi PF-5326-son "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2022-yil 30-apreldagi PQ-232-son "Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2023-yil 27-iyuldagi PQ-238-son "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Turizm va uning tarkibidagi turistik majmualar faoliyatini rivojlantirish va faoliyatni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish borasida xorijiy davlatlarda bir qator ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, F.Capone, K.Rayan, D.Landberg, M.Krishnamurti, Ch.Gii, J.Makens, D.Chey, G.Xarris, R.Kats, A.Atiyaman, M.Meskon, M.Albert, E.Shuxart, E.Deming, M.Porter, G.Chesbro, I.A.Kiselova, A.M.Tramova, F.Taylor, P.Druker<sup>3</sup>

---

<sup>3</sup> Capone F. Tourist clusters, destinations and competitiveness: theoretical issues and empirical evidences. Routledge: Taylor & Francis Group, 2016, 203 p.; Chris Rayan. Recreational Tourism: Demand and Impacts / Channel View Publications, 2003. – 358 p.; Landberg D., Krishnamurthy M. – Tourism Economics. New York: John Wiley Sons Inc. 2003. –210 p.; Gee Ch. Y., Makens J.C., Chey, D. The Travel Industry. 3d. Wdit. -New York John Wiley Sons Inc. 2003. -250 p.; Харрис Г., Кац Р. Становление международного туризма в XXI веке. М.: Финансы и статистика, 2006.; Athiyaman, A. (1997): Knowledge Development in Tourism: Tourism Demand Reserch, Tourism Management; Мескон М., Альберт М. др. Основы менеджмента, –М.: Дело, 1997. –С. 56.; Shewhart W. A. Statistical Method from the Viewpoint of Quality Control. Washington: The Graduate School, The Department of Agriculture, 1939; Deming W. E. Out of the Crisis. Cambridge, MA: Massachusetts Institute of Technology, Center for Advanced Engineering Study, 1986. P. 6.; Портер, М. Международная конкуренция: конкурентные преимущества стран [Текст] / М. Портер; под ред. В.Д. Щетинина. – М.: Международные отношения, 1993. – 896 с.; Чесбро, Г. Открытые инновации. Создание прибыльных технологий [Текст] / Г. Чесбро. – М.: Поколение, 2007. – 336 с. – ISBN: 9785976300545.; Kiseleva I.A., Tramova A.M., Bayasgalan Tssetsgee. Analysis of the competitiveness of the tourist industry enterprises with the application of model of business excellence. – IFOCT-2013 (8 International Forum on Strategic Tecnology-2013), Mongolia, Ulan Bator, 2013, pp. 802.; Тейлор Ф. Принципы научного менеджмента / Пер. с англ. – М.: Контроллинг, 1991. –104 с.; Друкер П. Посткапиталистическое общество. Новая постиндустриальная волна на Западе / Пер. с англ. – М.: Academia, 1999. – 288 с.; Друкер П. Практика менеджмента / Пер. с англ. – М.: Вильямс, 2007. – 398 с.; Drucker, P. (1977). People and Performance: The Best of Peter Drucker on Management. New York: Harper & Row. 317 p.

singari xorijlik olimlarning ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Bu olimlarning tadqiqotlarida turistik majmualar faoliyatining rivojlanishi, faoliyatni boshqarish jarayonlari rivojlanishining nazariy jihatlar hamda undan foydalanish samaradorligini oshirish mexanizmlari muayyan darajada nazariy va uslubiy jihatdan o'rganilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) davlatlarida turistik majmualar faoliyati va uning boshqarish jarayonlarini rivojlantirishning nazariy hamda uslubiy jihatlar Ye.V.Jertovskaya, A.Y.Aleksandrova, I.T.Balabanov, M.A.Jukova, N.I.Kabushkin, V.A.Kvartalnov, A.M.Vetitnev, L.B.Juravleva, A.V.Borisova, V.N.Rudchenko, D.D.Vachugov, N.V.Kuznetsova, A.A.Ignatyev, Ye.B.Kvashnina, A.I.Tarasenok<sup>4</sup> singari olimlar tomonidan atroflicha o'rganilgan. Mazkur tadqiqotlarda olimlar tomonidan turistik majmualar faoliyatini boshqarish jihatlar tadqiq etilgan hamda soha rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni baholashga e'tibor qaratilgan.

O'zbekistonda turizm sohasi, jumladan, turizmning turli tarmoqlarini rivojlantirish va boshqarish jarayonlari mamlakatimizda S.S.Gulyamov, M.Sharifxo'jayev, M.K.Pardayev, I.S.Tuxliyev, Q.X.Abdurahmonov, N.Q.Yo'ldoshev, A.A.Eshtayev, N.T.Tuxliyev, B.N.Navruz-zoda, O.H.Hamidov, Z.Dj.Adilova, M.T.Aliyeva, G.Sh.Xonkeldiyeva, A.T.Mirzayev, M.T.Alimova, B.Sh.Safarov, A.F.Saidov, A.N.Norchayev, Sh.R.Fayziyeva, Z.I.Usmanova<sup>5</sup> singari olimlarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan.

---

<sup>4</sup> Жертвовская Е.В. Разработка комплексной методики выбора и принятия управленческих решений в области развития туристского комплекса в социально-экономической системе. Автореферат диссертации. – Таганрог, 2007. – С. 19.; Александрова А. Ю. Международный туризм. Учебное пособие для вузов. – М.: Аспект Пресс, 2001. – 464 с.; Балабанов И.Т., Балабанов А.И. Экономика туризма. – М.: Финансы и статистика, 2003. – 176 с.; Жукова М.А. Менеджмент в туристском бизнесе. Учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2006. – 160 с.; Кабушкин Н.И. Менеджмент туризма: Учебник. 4-е изд., стереотип. – Минск: Новое знание, 2004. – 409 с.; Квартальнов В.А. Туризм: история и современность: Избранные произведения: В 4-х т. – М.: Финансы и статистика, 2002. – 499 с.; Ветитнев А.М., Журавлева Л.Б. Курортное дело: учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2006. 528 с.; Борисова А.В. Курортное дело и оздоровительный туризм: учебное пособие. – Ярославль: ЯрГУ, 2009. – 114 с.; Кластеры в туризме: особенности классификации, процесс формирования и методы оценки. // Общество. Среда. Развитие. – 2016, № 4. – С. 14.; Вачугов Д.Д. Основы менеджмента: учебное пособие. – М.: Высшая школа, 2005. – С. 59.; Кузнецова Н.В. История менеджмента. Изд-во Дальневосточного университета, 2004.; Игнатъев А.А. Инновации туризма на севере России [Текст] / А.А. Игнатъев // Горизонты экономики, 2015. – № 4 (23). – С. 30–36.; Квашнина Е.Б. Методика оценки влияния мультипликативного эффекта туристской деятельности на смежные отрасли региональной экономики. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. – СПб.: Санкт-Петербургский экономический университет им.Г.В.Плеханова. 2013. – С. 10-11.; Тарасенок А.И. Геоэкономика туризма. – М.: ИНФРА-М; Мн.: Нов. знание, 2011. – С. 169.

<sup>5</sup> Гулямов С.С., Жумаев Н.Х., Рахмонов Д.А., Ташходжаев М.М. Ижтимоий соҳада инвестицияларнинг самарадорлиги. Монография. – Т.: IQTISODIYOT, 2019. – 203 б.; Шарифхўжаев М., Абдуллаев Ё. Менежмент: Дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи, 2001 й. –75-77-66.; Пардаев М.Қ., Атабаев Р. Туристтик ресурсларни таҳлил қилиш ва баҳолаш. – Самарқанд: СамИСИ, 2006. – 137 б; Boltabayev M.P, Tuxliyev I.C. Turizm: nazariya va amaliyot. – Т.: Fan va texnologiya, 2018, - 400 б.; Абдурахмонов К.Х. Менежмент туризма: Учебное пособие. – Т.: Филиал ФГБОУ ВПО «РЭУ им. Г.В. Плеханова» в г. Ташкенте, 2013.; Yo'ldoshev N.K., Zaxidov G.E.. Menejment: o'quv qo'llanma. – Т.: O'zbekiston milliy faylasoflari jamiyati, 2018. – 392 б.; Эштаев А.А. Глобаллашув шароитида туризм индустриясини бошқаришнинг маркетинг стратегияси. (Ўзбекистон Республикаси туризм тармоғи мисолида) иқтисодий фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – С.: СамИСИ, 2019. – 246-б.; Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Национальные модели развития туризма. – Т.: Гос.науч.изд-во «Ўзбекистон миллий энциклопедияси», 2006. – 424 с.; Навруз-зода Б.Н., Ибрагимов Н.С., Навруз-зода З.Б., Навруз-зода Ш.Б. Туристтик худуд рақобатбардошлиги. Монография. – Бухоро: “Sadridin Salim Vuxoriy” Durdona nashriyoti, 2017 - 156 б.; Хамидов О.Х. Выбор конкурентной стратегии предприятия на рынке туристических услуг Узбекистана: дисс...канд. экон. наук. – С.: СамИСИ, 2006. -155 с.; Adilova Z.D., Aliyeva M.T., Norchayev A.N., Xursandov K.M. Turizm menejmenti. O'quv qo'llanma. – Т.: TDIU, 2011. -116 б.; Хонкелдиева Г.Ш., Муминова Э.А., Мирзаев А.Т., Асракулов А.А. Ўзбекистонда

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan olimlar turizm sohasini rivojlantirish va faoliyatni boshqarish jarayonlarini takomillashtirish, turizm salohiyatini yanada oshirish borasida ilmiy-nazariy tadqiqotlarni amalga oshirib, turistik faoliyatni boshqarish jarayonlarini rivojlantirishga o‘z hissalarini qo‘shganlar. Biroq ular tomonidan turizm sohasini rejali va tizimli boshqarish, soha faoliyatini hududlar kesimida rivojlantirish, hududlarda turistik majmualar faoliyati samaradorligini oshirish, turistik majmualarni shakllantirishda asosiy va yondosh infratuzilma tizimlarini rivojlantirish masalalarini yetarli darajada o‘rganilmagan. Mamlakatimizning yuqori turizm salohiyatiga ega hududlarida turistik majmualarni ustuvor tarmoq sifatida rivojlantirish va faoliyatning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini tadqiq etish, soha korxonalarini boshqaruviga ta‘sir etuvchi omillarni kompleks baholash asosida boshqaruv samaradorligini oshirish, hududlar kesimida turistik majmua xizmatlari va uning infratuzilmasini tadqiq etish dolzarb masala hisoblanadi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Farg‘ona davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, “Farg‘ona viloyati Farg‘ona tumanida turistik-rekreatsiya faoliyatini raqamli texnologiyalar asosida tizimlashtirish orqali rivojlantirish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** hududlarda turistik majmualar faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

turistik majmualar faoliyati shakllanishining nazariy-uslubiy jihatlarini hamda faoliyatni boshqarishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish;

turistik majmualar faoliyatini tashkil etish hamda boshqarishning xorij tajribasi va ulardan foydalanish afzalliklarini o‘rganish;

O‘zbekistonda turistik majmualarining shakllanishi va faoliyat natijadorligini hududiy tahlil qilish;

hududlarda turistik majmualar faoliyati bilan bog‘liq rivojlantiruvchi yondosh tarmoqlardan keluvchi multiplikativ samarani baholash va faoliyatni boshqarish samaradorligiga ta‘sir etuvchi tashkiliy-iqtisodiy omillar ta‘sirini baholash;

---

хизматлар соҳаси: замонавий ҳолат, муаммолар ва ривожланиш истиқболлари: Монография. – Тошкент: Наврўз, 2020. – 162 бет.; Мирзаев А.Т. Ўзбекистонда туристик-рекреация фаолиятини бошқариш методологиясини такомиллаштириш. Иқтисодий фанлари доктори (DSc.) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т.: ТДИУ, 2021. – 254-б., Мирзаев А.Т. Ўзбекистон ҳудудларида туристик-рекреация объектларидан самарали фойдаланиш механизмини такомиллаштириш. Иқтисодий фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – С.: СамИСИ, 2019. – 154-б.; Алимова М.Т. Худудий туризм бозорининг ривожланиш хусусиятлари ва тенденциялари (Самарқанд вилояти мисолида): иқтисодий фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – С.: СамИСИ, 2017. - 265 б.; Сафаров Б.Ш. Миллий туристик хизматлар бозорини инновацион ривожлантиришнинг методологик-услубий асосларини такомиллаштириш: иқтисодий фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – С.: СамИСИ, 2016. - 254 б.; Саидов А.Ф. Организационно-экономические механизмы управления туризмом Республики Узбекистан: Исс... док. экон. наук. – Т., 1994. - 252 с.; Норчаев А.Н. Халқаро туризм ривожланишининг иқтисодий ўсишга таъсири (Испания мисолида): иқт.фан.номз. дисс. – Т., 2004. - 136 б.; Файзиёва Ш. Р. Ўзбекистонда туризм ривожланишининг иқтисодий механизмини такомиллаштириш: и.ф.н. дисс. – Т., 2006. - 156 б.; Усманова З.И. Ўзбекистонда туристик-рекреацион хизматларни ривожлантириш хусусиятлари ва тенденциялари: иқтисодий фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – С.: СамИСИ, 2018. – 56 б.



hududiy turistik majmualar faoliyatini samarali tashkil etish va boshqarishda ko‘p variantli modellardan foydalanish istiqbollari belgilash;

turistik majmualar faoliyatini samarali tashkil etishda tashkiliy-iqtisodiy hamda boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish;

turistik majmualar faoliyatini strategik rivojlantirish ssenariylari asosida hududiy taraqqiyot dasturlarini takomillashtirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida mamlakatimizda turizm sohasida faoliyat yuritayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyati va uni boshqarish jarayonlari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** hududlarda turistik majmualar faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish jarayonida yuzaga keluvchi tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar majmui hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada induksiya-deduksiya, tizimli yondashuv, abstrakt-mantiqiy fikrlash, statistik va taqqoslama tahlil, guruhlash, SWOT tahlil, ekonometrik tahlil va prognozlashtirish usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “turistik majmua” tushunchasi o‘z tarkibiga ishlab chiqarish, ijtimoiy hamda rekreatsion tavsifdagi inshootlar, tarmoqlar va korxonalar majmuini oluvchi hamda turistlarga xizmat ko‘rsatuvchi va turistik-rekreatsion sohaning amal qilishini ta‘minlovchi shaxsiy infratuzilma tizimiga ega bo‘lishi jihatidan takomillashtirilgan;

turistik majmualarda “Ichki turizm oyligi”ni tashkil qilish asosida sayohat uchun nomavsumiy hisoblangan oylardagi turistik oqimning pasayishini ichki turizm dasturlari tarkibiga qo‘shimcha ravishda madaniy, ko‘ngilochar, milliy va diniy bayramlar, katta sport tadbirlarini kiritish hamda sayohat qulayliklarini yaratish orqali tartibga solish taklifi asoslangan;

turistik majmualar faoliyatida xizmat ko‘rsatuvchi korxonalar (mehmonxona, mehmon uylari, sanatoriy)lar va ovqatlanish xizmatlari ko‘rsatuvchi korxonalar (kafe, restoran)lar uchun elektron buyurtma (dasturiy ta‘minot va mobil ilova) platformasi yordamida turistik majmua xizmatlariga yashirin talabni raqamli rezervlash amaliyotidan foydalanish taklifi ishlab chiqilgan;

O‘zbekistondagi turizm iste‘moli, investitsiyalar hajmi, xizmat ko‘rsatilgan mijozlar soni, turizm tarmog‘i va boshqa tarmoqlarda ishlab chiqarish hisobi va turizm sohasidan olinadigan daromadlar hajmini hisobga olib, turistik majmualardan foydalanish asosida sohada yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat hajmining 2027-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

hududlarda turistik majmualar faoliyatining rivojlanish holati va o‘zgarish tendensiyalari tahlili asosida hududning resurs salohiyati baholangan;

turistik majmualar faoliyatining rivojlanishiga omillar ta‘sirini SWOT-tahlil, anketa so‘rovi hamda ekspert baholash usullari orqali o‘rganish asosida faoliyatning hududiy rivojlantirish modellari aniqlangan;

turistik majmualar faoliyatida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan risklarni nazariy va uslubiy jihatdan o'rganish asosida risk darajasini pasaytirishda ularning boshqarish imkoniyatlari asoslangan;

innovatsion yondashuv asosida hududlarda turistik majmualar faoliyatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizimi tarkibiga kiruvchi investitsion mexanizmdagi tashkiliy va iqtisodiy dastaklardan foydalanish yo'nalishlari belgilangan;

turistik majmualarni barqaror rivojlantirishning funksional va mantiqiy modeli hamda innovatsion jarayonga yo'naltirilgan mexanizmini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqotda qo'llanilgan nazariy va uslubiy yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi axborotlar bazasining rasmiy manbalari, jumladan, Ekologiya vazirligi huzurida Turizm qo'mitasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining statistik ma'lumotlari manbalaridan olingani hamda tegishli xulosa va takliflarning amalda sinovdan o'tkazilganligi, olingan natijalarning vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan ma'qullanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyatini shu bilan izohlash mumkinki, tadqiqotda ishlab chiqilgan nazariy va uslubiy taklif hamda tavsiyalar turistik majmualar faoliyatni rivojlantirishi va mamlakatimizda turizm sohasining samarali yo'lga qo'yilishi, turizm xizmatlari bozorida soha korxonalari raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilgan, shuningdek, mamlakatimiz turizm xizmatlari sohasida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish jarayonida iqtisodiy samaradorlikni oshirishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi faoliyatida, milliy iqtisodiyotning turizm faoliyati bilan bog'liq sohalarida, hududlardagi turizm faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tadbirkorlik(klaster va majmua)larida sohani yanada takomillashtirishga doir tadbirlar ishlab chiqishda, pandemiya sharoitida qisqa va uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish strategiyalar ishlab chiqishda, oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan mutaxassislariga "Turizm menejmenti", "Mehmonxona xo'jaligida xizmatlar sifatini boshqarish", "Turizm iqtisodiyoti va menejmenti", "Turizm infratuzilmasi", "Xalqaro turizm" fanlaridan o'quv qo'llanma va darsliklar tayyorlashda ilmiy-uslubiy manba sifatida foydalanilish bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Turizm korxonalarida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "turistik majmua" tushunchasi o'z tarkibiga ishlab chiqarish, ijtimoiy hamda rekreatsion tavsifdagi inshootlar, tarmoq va korxonalar majmuini oluvchi hamda turistlarga xizmat ko'rsatuvchi va turistik-rekreatsion sohaning amal qilishini ta'minlovchi shaxsiy infratuzilma tizimiga ega bo'lishi jihatidan takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy materiallardan oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun tavsiya etilgan "Mehmonxona xo'jaligida xizmatlar sifatini boshqarish" nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston

Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 22-dekabrda 537-sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda turistlarga xizmat ko'rsatuvchi va turistik-rekreatsion sohaning amal qilishini ta'minlovchi shaxsiy infratuzilma tizimiga ega bo'lishi jihatidan takomillashtirilgan "turistik majmua" tushunchasi bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish imkoni yaratilgan;

turistik majmualarda "Ichki turizm oyligi"ni tashkil qilish asosida sayohat uchun nomavsumiy hisoblangan oylardagi turistik oqimning pasayishini ichki turizm dasturlari tarkibiga qo'shimcha ravishda madaniy, ko'ngilochar, milliy va diniy bayramlar, katta sport tadbirlarini kiritish hamda sayohat qulayliklarini yaratish orqali tartibga solish taklifidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-sonli farmoniga 1-ilova sifatida tasdiqlangan "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi"dagi 35-maqsadda ko'zda tutilgan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligining 2023-yil 25-iyuldagi 05-12-15-5444-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida "Ichki turizm oyligi"ni tashkil qilish bo'yicha ishlab chiqilgan ssenariylar optimalligi ortgan hamda sohada mavjud mavsumiylik omilining salbiy ta'sir darajasi 10-13 % ga pasaygan;

turizm majmualari faoliyatida xizmat ko'rsatuvchi korxonalar (mehmonxona, mehmon uylari, sanatoriy)lar va ovqatlanish xizmatlari ko'rsatuvchi korxonalar (kafe, restoran)lar uchun elektron buyurtma (dasturiy ta'minot va mobil ilova) platformasi yordamida turistik majmua xizmatlariga yashirin talabni raqamli rezervlash amaliyotidan foydalanish taklifidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga 2-ilova sifatida tasdiqlangan 2019–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligining 2023-yil 25-iyuldagi 05-12-15-5444-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikni amaliyotga joriy etilishi natijasida faoliyat yuritayotgan turizm korxonalarida yaratilayotgan xizmatlarga real talabni potensial talabga aylantirish va, bu bilan, ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmi qisqa vaqtda o'rtacha 15-20 % gacha ortgan;

O'zbekistondagi turizm iste'moli, investitsiyalar hajmi, xizmat ko'rsatilgan mijozlar soni, turizm tarmog'i va boshqa tarmoqlarda ishlab chiqarish hisobi va turizm sohasidan olinadigan daromadlar hajmini hisobga olib turistik majmualardan foydalanish asosida sohada yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmining 2027-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlaridan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga 2-ilova sifatida tasdiqlangan 2019–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston

Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligining 2023-yil 25-iyuldagi 05-12-15-5444-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi natijasida iqtisodiyot tarmoqlari va turizm xizmatlari bozori resurs komponentlarining optimal integratsiyasi hisobiga turizm korxonalari va turistik majmualarning maqsadli parametrlarini samarali belgilash imkoniyati yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari aks etgan 10 ta ish aprobatsiyadan o'tkazilgan. Jumladan, 2 tasi xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda, 8 tasi respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprobatsiyadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish e'lon qilingan. Ularning 14 tasi respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlari materiallari to'plamlarida, 6 tasi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda, jumladan, 4 tasi respublika jurnallarida va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 160 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda obyekti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Turistik majmualar faoliyatini tashkil etish va boshqarishning nazariy-uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida turistik majmualar faoliyati shakllanishi va ularni boshqarishning nazariy-uslubiy jihatlari, turistik majmualar faoliyatini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari, turistik majmualar faoliyatini tashkil etish hamda boshqarishning xorij tajribalari va ulardan foydalanish afzalliklari yoritilgan.

Mamlakatimiz va uning hududlarida bugungi zamon talablariga javob beruvchi, raqobatbardosh va yuqori samaradorlikka ega turistik majmualarni shakllantirish, hududlarda investitsion muhitni yaxshilash asosida ularning investitsion jozibadorligini oshirish jarayonida turistik majmualarni tashkil qilish hamda boshqarish alohida ahamiyat kasb etadi. Turistik majmualarni tashkil qilish uning ishtirokchilariga innovatsion texnologiyalardan foydalanish, malakali ishchi kuchini jalb etish, axborot, biznes xizmatlari sifatini yaxshilash hamda samaradorligini oshirish imkoniyatini ta'minlaydi. Shuningdek, turizm sohasini turizm resursi salohiyati yuqori hududlarda turistik majmualarni tashkil etish asosida rivojlantirish mamlakat hududlari o'rtasida samarali hamkorlikni tashkil etish, turizm sanoati infratuzilmasining innovatsion yo'nalishda barqaror o'sishi uchun imkoniyat yaratishga yordam beradi.

Turistik majmualar yoʻnalishi hududlar iqtisodiyotini rivojlantiruvchi lokomotivi sanaladi. Bu tarmoqni jadal rivojlantirish orqali hududning investitsion jozibadorligi oshadi. Bu mexanizmdagi ishtirokchilar resurslardan chegaralanganligi sababli iqtisodiy munosabatlardagi ishtiroki oʻziga xos boʻladi<sup>6</sup>.

Turistik majmualarning shakllanishi va rivojlanishi hamda ularni aniqlash muammolari F. Kapone, T.Lonikova, Y.G. Kropinova, X.Gudvin, D. A.Kosheyeva va O.Y. Isopeskul va boshqa iqtisodchi olimlar asarlarida yoritib berilgan. Taʼkidlash joizki, bugungi kunda turistik majmualarni oʻrganishda bir qator yondashuvlar mavjud. Gʻarb olimlari koʻpincha ushbu muammoni oʻrganishga sayyohlik hududining raqobatbardoshligini taʼminlash nuqtai nazaridan yondashdilar. F.Kaponening fikricha, turistik majmualar qiymat zanjiri bilan birlashtirilgan turizm bozori subyektlarining mahalliyashtirilgan guruhi boʻlib, ularning oʻzaro taʼsiri raqobatbardosh kooperativdir<sup>7</sup>.


Muallifning fikricha, turistik majmua – mavjud resurslardan samarali foydalanish imkonini beruvchi ishlab chiqarish, noishlab chiqarish va ilmiy-taʼlim sohalarida alohida korxonalar, firma va tashkilotlarning geografik va sanoat-tematik yaqinligini hisobga olgan holda iqtisodiy faoliyatni tashkil etishning innovatsion shakli, barcha asosiy faoliyat uchun xarajatlarni kamaytirish va majmuaning oʻzi va uning tarkibida ishlovchi tuzilmalarning raqobatdosh ustunliklarini aniqlashdan iborat.

Hududlarda turistik majmualarning shakllanishi va rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotiga kiruvchi turizmni rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlaridan biridir. Shu bilan birga zamonaviy turistik majmualarni shakllantirishda asosiy turizm faoliyati: turizm mahsulotlari, rekreatsiya mahsulotlari, turizm bozorlari, sanatoriya obyektlari hamda mahsulotlari, tabiiy turizm resurslari, mehmonxonalar, mehmonxona xizmatlari va mehmon uylaridan, shuningdek, turizm infratuzilmasi: sanoat, sanoat mahsulotlari, transport, ijtimoiy obyektlar, sogʻliqni saqlash, uy-joy, moliyaviy sektor, banklar va sugʻurta tashkilotlari, moddiy-texnik baza singari tarkibiy qismlardan tashkil topadi va turistlarning ehtiyojlari qondirilishini taʼminlaydi (1-rasm).

---

<sup>6</sup> Дмитриев Ю.А., Шустров А.И., Байков А.Б. Особенности развития государственно-частного партнерства в региональном туристско-рекреационном комплексе. // Вопросы экономики и права, 2015, № 4

<sup>7</sup> Capone F. Tourist clusters, destinations and competitiveness: theoretical issues and empirical evidences. Routledge: Taylor & Francis Group, 2016, 203 p.




**1-rasm. Hududiy turizm majmualarining tarkibiy tuzilmasi<sup>8</sup>**

Turizmning bir yoki bir nechta turlari ma'lum bir yo'nalishga ega turistik majmualar yaratishda ishtirok etadi. Turizm faoliyatining umumiy tasnifida yetarlicha kattalashtirilgan ahamiyatga ega turizm turlariga ko'ra turistik majmualarning yo'nalishini ko'rib chiqish muhim sanaladi.

Turistik majmualarni tashkil qilish hudud taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qiluvchi ideal holat sifatida baholanadi. Shu sababli turistik majmualarning zarur holatini tasvirlash uchun uni shakllantirish maqsadlarini aniq ifodalash kerak. Hududlarda turistik majmualarni tashkil qilishning strategik maqsadlarini keltirib o'tish lozim (2-rasm).

<sup>8</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqildi.



**2-rasm. Turistik majmualarni shakllantirishning strategik maqsadlari<sup>9</sup>**

Turistik majmualarni shakllantirishning asosiy maqsadi muayyan hudud rivojlanishini rag'batlantirish yoki iqtisodiyotning alohida sohalarini tez o'sishini ta'minlash ekanligini ko'rish mumkin.

Hududlarda turizm faoliyatining rivojlanishi bevosita samarali va raqobatbardosh turizm bozorining rivojlanish ko'rsatkichlariga bog'liq hisoblanib, bunda qator bajarilishi zarur vazifalarni amalga oshirish va shart-sharoitlarni taminlash kerak.

Turistik majmualar faoliyatini boshqarishda boshqaruvning klassik nazariyasida mavjud boshqaruv qonunlari, tamoyillari, usullari hamda funksiyalari turistik majmua bo'g'inlarining holati va xususiyatlariga mos bo'lgan tegishli tartibda alohida hamda aralash holda qo'llaniladi<sup>10</sup>.

<sup>9</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

<sup>10</sup> Sharifxo'jayev M., Abdullayev Y. Menejment: Darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2001 y. – 5 b. <http://uz.denemetr.com/docs/768/index-300474-1.html>.

Turistik majmualar faoliyatini boshqarish jarayonlarida boshqaruvning ixtisoslashtirish, integratsiya, markazlashtirish, demokratlashtirish hamda vaqt qonunlari, shu bilan birga boshqaruvda yakkaboshchilik va kollegiallik, ilmiylik, rejalilik, boshqaruv shakl va usullarini takomillashtirib borish, kadrlar tanlash va joylashtirish, agentlarning mustaqilligi va erkinligi, shaxsiy tashabbus hamda javobgarlik va tavakkalchilik tamoyillari umumiy holda amal qilib, bu qonun va tamoyillar boshqa tarmoqlardagi holatdan sohadagi faoliyatni tashkil etishdagi xususiyatlardan kelib chiqib farqlanadi.

Turistik majmualar faoliyatini boshqarish jarayonida ham marketing, rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish, rag'batlantirish, hisob va nazorat funksiyalari singari umumiy funksiyalar bilan birga asosiy faoliyatni boshqarish, qo'shimcha xizmatlarni boshqarish, xizmat sifatini boshqarish hamda mehnat va ish haqini boshqarish singari aniq funksiyalar bajarilishi ta'minlanadi<sup>11</sup>.

Turistik majmualar faoliyatini boshqarish turizm xizmatlarini ishlab chiqarish jarayonining rivojlanishini ta'minlash uchun boshqariladigan obykti va subyektiga qaratilgan, tabiiy-iqtisodiy tizim komponentlariga tizimli ta'sir etish orqali barqaror turistik mahsulotini olishga yo'naltirilgan jarayondir<sup>12</sup>.

Turistik majmualar faoliyatida samarali boshqaruvni shakllantirishda turizm xizmatlari ishlab chiqaruvchi tadbirkorlik tuzilmalari, hokimiyat va tabiatning o'zaro aloqasiga asoslanadi, bu esa vertikal va gorizontaal boshqaruv tizimlarining o'zaro birikishiga imkon beradi. Vertikal va gorizontaal boshqaruv tizimlarining o'zaro birikishi ijtimoiy-iqtisodiy risklarni minimallashtirishning real imkoniyatlarini yuzaga keltiradi.


Turistik majmuada nomavsumiy oylarda zamonaviy boshqaruv konsepsiyasiga asosan biznes-jarayonlarni ajratish va ularni samarali boshqarish tizimini qurishga asoslanadi. Qurilayotgan boshqarish tizimida ichki turizm tadbirlarini o'tkazishda biznes-jarayon (o'zaro bog'liq faoliyatning barqaror, maqsadga muvofiq majmuasi), biznes-jarayonga kiruvchi omillar (tashqi yetkazib beruvchilar tomonidan ta'minlanuvchi resurslar), biznes-jarayon egasi (jarayonni amalga oshirish uchun zarur resurslarga ega bo'lgan va bu jarayon uchun javobgar bo'lgan rasmiy yoki kollegial boshqaruv organi), biznes-jarayon resurslari (jarayonni amalga oshirish uchun doimiy ishlatiladigan kirish omili bo'lmagan moddiy yoki axborot obykti), biznes-jarayon ko'rsatkichlari (biznes-jarayon va uning natijalarini ifodalovchi miqdoriy va sifat parametrlari), biznes-jarayon samaradorligi ko'rsatkichlari (erishilgan natija va foydalanilgan resurslar o'rtasidagi bog'lanishni ifodalovchi biznes-jarayon parametrlari) singari bir necha asosiy tushunchalardan foydalaniladi (3-rasm).

---

<sup>11</sup> Sharifxo'jayev M., Abdullayev Y. Menejment. Darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2001 y. 75-77-bb.

<sup>12</sup> Чаки Ф. Современная теория управления: нелинейные, оптимальные и адаптивные системы. – М.: Мир, 1975. – 424 с.





**3-rasm. Turistik majmuada nomavsumiy oylarda ichki turizm tadbirlarini o‘tkazishda biznes-jarayonlar tarkibi<sup>13</sup>**

Turli xorijiy mamlakatlarning turistik majmualar tarmog‘ini rivojlantirish modellari hamda uni amalga oshirish tizimi ushbu mamlakatlarda turistik majmualar faoliyatining shakllanishi va shakllangan tizimning amal qilish xususiyatlaridan kelib chiqqan holda paydo bo‘lgan. Shuningdek, ushbu tizimlarning milliy xizmatlar bozoriga moslashuvi va davlat tomonidan soha taraqqiyotining boshqarilishi ham tizimning optimal shakllanishi va sohaga innovatsiyalarni joriy etilish holatiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekistonda turistik majmualar faoliyatining rivojlanish holati va ularda boshqaruv jarayonlarini baholash”** deb nomlangan ikkinchi bobida turistik majmualarning shakllanishi va faoliyat natijadorligining hududiy tahlili, hududlarda turistik majmualar faoliyati bilan bog‘liq rivojlantiruvchi yondosh tarmoqlardan keladigan multiplikativ samarani iqtisodiy baholash hamda turistik majmualar faoliyatining boshqarish samaradorligiga ta’sir etuvchi tashkiliy-iqtisodiy omillar ta’siri baholangan.

Jahon mamlakatlari taraqqiyoti tahlili ko‘pchilik rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotining iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlarida turizm sohalari va tarmoqlarining ulushi tez sur‘atlar bilan o‘sib borayotganligini ko‘rsatmoqda. Chunki ushbu soha tarmoqlarining aksariyati faoliyatni tashkil etish uchun katta hajmdagi vositalar va moliyaviy resurslarni talab qilmaydi, shu bilan birga xizmat ko‘rsatish davrining qisqaligi va qilingan xarajatlarning qisqa muddatda qaytishi soha tarmoqlari faoliyatining aylanish tezligi hisobiga xizmatlar hajmini oshirish imkonini beradi.

Yalpi ichki mahsulot tarkibining o‘zgarishini aks ettiruvchi dinamik qatorlar tahlili pandemiya davrigacha bo‘lgan davrda hamda 2021-yildan boshlab ham turistik tarmoqlar tomonidan yaratilayotgan hajm milliy iqtisodiyotning qolgan

<sup>13</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

tarmoq va sohalariga nisbatan muntazam o'sish xususiyatiga ega ekanligini ko'rsatadi. Turizm bilan bog'liq faoliyatning aksariyati aynan xizmat ko'rsatuvchi tizimlar tomonidan amalga oshirilishini hisobga olib, asosiy makro darajadagi ko'rsatkich sifatida turizm sohasi va uning tarkibidagi turistik majmualar faoliyatiga bog'liq statistik ko'rsatkichlar tahlili asosida sohadagi o'zgarish trendlarini baholashga harakat qilindi. Tadqiqotni amalga oshirish jarayonidagi tahlillar turizm sohasining salohiyati hamda rivojlanishi nuqtai nazaridan o'tgan yillar davomida sohada sezilarli rivojlanish yuz berganligini kuzatish imkonini beradi (1-jadval).

### 1-jadval

#### O'zbekiston Respublikasining 2014- 2022-yillardagi ayrim makroiqtisodiy ko'rsatkichlarining o'zgarishi<sup>14</sup> (mlrd. so'm hisobida)

Ko'rsatkichlar	Yillar									2022-yilda 2014-yilga nisbatan, marta
	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	
<b>Yalpi ichki mahsulot (mlrd so'm)</b>	186829,5	221350,9	255421,9	317476,4	426641,0	532712,5	605514,9	738425,2	888341,7	4,8 m.
YAIMning o'zgarish sur'ati, %	106,9	107,2	105,9	104,4	105,5	106,0	102,0	107,4	105,7	-1,2
<b>Xizmatlar jami</b>	68032,1	78530,4	97050	118811	150889,8	193697,8	219978,5	284388,1	357554,5	5,3 m.
Xizmatlar hajmining YAIMdagi ulushi, %	43,7	43,1	42,8	41,4	39,8	39,6	39,7	39,6	41,5	-2,2
Xizmatlar hajmining o'zgarish sur'ati, %	114,2	113,4	114,7	110,7	108,9	113,2	103,0	119,5	115,9	1,7
<b>Mamlakat ichidagi turistik xizmatlar iste'moli (mlrd so'm)</b>	13576,2	14010,7	13772,5	16568,3	20561,3	33906,8	7287,6	10297,6	32641,4	4,1 m.
Mamlakat ichidagi turistik xizmatlar iste'molining YAIMdagi ulushi, %	7,2	6,3	5,4	5,2	4,8	6,4	1,2	1,4	3,7	-3,5
Turistik xizmatlarining o'zgarish sur'ati, % (marta)	3,9	3,4	-1,7	20,3	24,1	64,9	-78,5	41,3	3,2 m	3,1 m

Mamlakat ichidagi turistik xizmatlar iste'moli hajmi va uning o'zgarish sur'ati hamda mamlakat ichidagi turistik xizmatlar iste'moli hajmining yalpi ichki mahsulot hajmidagi ulushining tahlili sohadagi yuz berayotgan o'zgarishlar tendensiyalarini aniqroq baholash imkonini beradi.

<sup>14</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

1-jadvalda keltirilgan ko‘rsatkichlardan ko‘rish mumkinki, mamlakat ichidagi turistik xizmatlar iste‘moli hajmi 2019-yilgacha bo‘lgan davrda o‘shir tendensiyasiga ega bo‘lgan va 2020-yilda yuz bergan pasayish 2022-yilgacha yana barqaror osish shaklidagi trendni qayd etgan. Mazkur holat bevosita sohaga kiritilgan investitsiyalarning o‘shiri, mamlakatda turizm iste‘molining yuqori o‘shiri bilan ifodalanadi. Bunday omil ko‘rsatkichlarning o‘shiri ta‘sirida turizmga bandlik va to‘g‘ridan-to‘g‘ri turizmga yaratilgan qo‘shilgan natijaviy ko‘rsatkichlarning yuqori o‘shir sur‘ati kuzatildi (2-jadval).

## 2-jadval

### O‘zbekistonda turizmning asosiy ko‘rsatkichlari dinamikasi<sup>15</sup>, o‘tgan yilga nisbatan foizda

Ko‘rsatkichlar	Yillar								
	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
To‘g‘ridan to‘g‘ri turizmga yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat	102,1	103,8	100,8	108,9	109,8	121,3	20,1	119,7	128,3
Turizmga kiritilgan investitsiyalar hajmi	105,1	100,2	124,2	135,2	105,3	138,1	70,2	127,6	143,8
Mamlakat ichidagi turizm iste‘moli	103,9	103,4	98,3	120,3	124,1	164,9	21,5	141,3	3,2 m
Turizm tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat	105,3	108,3	108,4	105,8	104,8	107,8	91,5	105,7	116,8
Turizmga bandlar soni	102,3	101,8	90,7	109,8	107,1	114,7	82,1	120,4	125,7

2022-yilda O‘zbekiston Respublikasida jami 1610197,8 ming AQSh dollari hisobida turizm xizmatlari eksport qilingan. Eksport qilingan turizm xizmatlarining hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko‘rsatkich Toshkent shahri 21006,2 ming AQSh dollari, Samarqand viloyatida 6448,3 ming AQSh dollari, Buxoro viloyatida 4559,9 ming AQSh dollari, Xorazm 3871,9 ming AQSh dollari va Andijon viloyati 1899,8 ming AQSh dollari hisobida turizm xizmatlari eksport qilinganini ko‘rish mumkin.

Hudud iqtisodiyotining zamonaviy rivojlanishi alohida tarmoqlarning rivojlanishi bilan emas, balki turli tarmoqlararo komplekslarning ishlashi bilan tavsiflanadi. Turistik majmualar faoliyatiga milliy iqtisodiyotning yirik mustaqil tarmoqlararo, iqtisodiy kompleksi sifatida yondashish kerak, chunki turistik majmualar faoliyati turli sohalarni birlashtirgan holda ma‘lum bir gorizontol makonni, shu jumladan turli sohaga mansub korxonalar va tashkilotlarni qamrab oladi.

Amalga oshirilgan nazariy-uslubiy tadqiqotlar asosida turistik majmua korxonalarini iqtisodiy faoliyatining natijadorligini baholash uchun moliyaviy faoliyat samaradorligidan tashqari moddiy-texnik va kadrlar salohiyati samaradorligini o‘z ichiga oluvchi turistik majmua iqtisodiy faoliyatining integral ko‘rsatkichidan foydalanish tavsiya etiladi.

<sup>15</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

$$K_{\text{IC}} = \sqrt[3]{K_{\text{M}\phi} \times K_{\phi\phi} \times K_{\text{KC}}} \quad (1)$$

Bu yerda:  $K_{\text{IC}}$  – turistik majmua faoliyati iqtisodiy samaradorligining yig‘ma ko‘effitsiyenti;

$K_{\text{M}\phi}$  – moliyaviy faoliyat samaradorligi ko‘effitsiyenti;

$K_{\phi\phi}$  – o‘rin fondidan foydalanish samaradorligi ko‘effitsiyenti;

$K_{\text{KC}}$  – kadrlar salohiyati samaradorligi ko‘effitsiyenti.


Hududlarda turizm sanoati faoliyatining rivojlanishiga omillar ta‘sirini o‘rganishdan oldin uning holatini baholash maqsadida bozorning kuchli, zaif tomonlari, mavjud imkoniyat va xatarlarni aniqlashga yordam beruvchi SWOT tahlil amalga oshirildi.

Turistik majmualar faoliyatini rivojlantirish va uni boshqarish jarayonlarini tashkil etishga ta‘sir etuvchi omillarni muhimlik darajasi bo‘yicha belgilab olish maqsadida Farg‘ona, Andijon va Namangan viloyatidagi turistik faoliyat bilan shug‘ullanuvchi 90 nafar tadbirkorlik subyektlari o‘rtasida ushbu faoliyatni tashkil etish va boshqarishga omillar ta‘siri yo‘nalishida shakllantirilgan anketa so‘rovnomasi o‘tkazildi.

So‘rovnomada ishtirok etgan respondentlarning fikri asosida turistik majmualar faoliyati rivojlanishiga ta‘sir etuvchi muhim omillarning faoliyat samaradorligiga ta‘siri darajasi baholandi. Bunday omillar yuqorida o‘tkazilgan tahlillar, soha rivojlanishining xususiyatlari hamda mutaxassis ekspertlarning fikrlari asosida tanlab olindi.

